

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 168 (1229), 2024-yil 22-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

OZARBAYJON PREZIDENTI
DAVLAT TASHRIFI BILAN
O'ZBEKISTONDA BO'LADIO'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan
Ozarbayjon Respublikasi PrezidentiIlhom Aliyev 22-23-avgust kunlari davlat tashrifi
bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida O'zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari raisligida oliy darajadagi muzokaralar va Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Sammit kun tartibidan O'zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish masalalari o'rin olgan.

O'zaro tovar ayirboshlashni ko'paytirish, kooperatsiya loyihalarining yangi

portfelini shakllantirish, ishbiarmonlik aloqalarini, shu jumladan, hududlararo almashinuvni rivojlantirish, transport-kommunikatsiya salohiyatini ro'yobga chiqarish, madaniy-gumanitar aloqalarni faollashtirish va boshqa masalalar diqqat markazida bo'ladi.

Prezidentlar ikki mamlakat biznesi vakillari bilan uchrashuv o'tkazishi, qator ishbiarmonlik va madaniy tadbirlarda ishtirok etishi ham ko'zda tutilgan.

O'ZA

O'zbekiston — Ozarbayjon:

DO'STLIK VA HAMKORLIK
ALOQALARINING
MUSTAHKAM POYDEVORIGA
ASOSLANGAN FAOL MULOQOTPrezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan
Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev
22-23-avgust kunlari davlat tashrifi bilan
O'zbekistonda bo'ladi.

Ozarbayjon — mamlakatimizning Janubiy Kavkazdagi strategik hamkori va qardosh davlat hisoblanadi. O'zbekiston va Ozarbayjon qadimiy va yangi tarixda hamisha yaqin hamkorlik olib borgan bo'lib, do'stona munosabatlarni saqlab kelmoqda.

O'zbekistonning xalqaro hamkorlari orasida Ozarbayjonning alohida o'rni borligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi oliy va boshqa darajadagi faol muloqotdan dalolat beradi.

2022-yilda Ozarbayjon Prezidenti O'zbekistonga uch marta — iyun oyida davlat tashrifi bilan, sentabr oyida SHHTga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari sammitida ishtirok etish uchun va noyabr oyida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari sammitida ishtirok etish uchun keldi.

Davomi 2-beta

BUYUK O'ZBEK YO'LI

KECHAGI KUN XATOLARI —
BUGUNGA SABOQ

Avzug oyi oxirlamoqda. Bundan qariyb yetti yil muqaddam, shunday kunlarda "paxta terimi"ga tadorik ko'rib, qishning qirovli kunlarigacha paxta dalasidan beri kelmas ekanmiz-da, degan hadik hammamizning yuragimizni xavotirga solardi.

Negaki, talabalar o'qish o'miga yilning to'rtidan bir qismini paxta dalalarida o'tkazardi. Chekka hududlarda paxta terimchisi bo'lmasa, talabalar avtobuslarda tashilib, eski uylar va tashlandiq binolarda yashashga majbur qilinardi. Kuzning rutublatli kunlari zahri va ko'saklar chanog'idan talabalarning qo'llari qadoq bo'lib, barmoqlari yorilib ketardi. O'sha kezlarda ba'zi talabalar paxtaga chiqmagani uchun o'qishdan haydalisgacha borgan. U paytlar inson qadri tugul yoshlar kelajagini, taqdirini belgilovchi ta'lim sifatiga ham befarq qaralar edi, desak xato bo'lmaydi.



Chindan ham agrar siyosat uchun sifatli ta'limdan ko'ra, paxta terimi dolzarb masala bo'lgan. Mamlakat taraqqiyoti uchun o'quvchilar, talabalarning ta'lim olishi emas, paxta xirmonlari, ya'ni jahon bozoriga paxta xomashyosi yetkazib berish ustuvor ahamiyatga ega edi. O'zimiz

mustaqil mamlakat bo'lsak-da, eskicha ma'muriy boshqaruv, eskicha qarashlardan voz kechilmagandik.

Bundan o'z manfaatini yo'lida foydalangan tashqi manbalar O'zbekistonni fuqarolarini ekspluatatsiya qiluvchi agrar davlat sifatida qoralab, bong urardi. Natijada boykot e'lon

qilinib, O'zbekistonga investorlar tomonidan investitsiyalar kiritilmadi, buning oqibatida sanoat sust rivojlandi, demografik o'sishga nisbatan qo'shimcha qiymat yaratilmadi. Bu holatni mustaqil davlatda iqtisodiy turg'unlik davri deb atash mumkin.

Davomi 3-beta

Biz va dunyo

Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy:

"O'ZBEKISTON PREZIDENTINING
SA'Y-HARAKATLARI MAMLAKATNING
IJTIMOIY-IQTISODIY MANZARASINI
TUBDAN O'ZGARTIRIB,
UNI TARAQQIYOT SARI YO'NALTIRDI"BAA energetika va infratuzilma vaziri
Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy "Dunyo"
axborot agentligi uchun intervyu berdi.


O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar so'nggi yillarda barcha sohalarda jadal rivojlanib bormoqda. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni yanada mustahkamlash bo'yicha sa'y-harakatlar davom ettirilib, tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma korxonalar va to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar soni oshib boryapti.

Davomi 2-beta

Ko'ngildagi bitiklar

AZALIY
QARDOSHLIKNING
ADABIY RISHTALARI

O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lgach, qardosh xalqlar bilan hamkorlik aloqalarimiz yanada mustahkamlandi. Ayniqsa, adabiyot, madaniyat va san'at jabhalarida tamomila yangi davr boshlandi, deyish mumkin.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan nashr etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" majmuasining barcha turkiy xalqlar kitobxonlari, ijodkor ziyolilari tomonidan katta mamnuhiyat bilan kutib olingani, taqdimot marosimlari zo'r xursandchilik va tantanalar bilan tashkil etilayotgani ham bejiz emas. Zero, ushbu muhtasham majmua yer yuzida qariyb 300 million nufusga ega turkiy xalqlarning ko'p ming yillik mushtarak tarixi, boy madaniyati, o'lmas qadriyatlari, badiiy-estetik tafakkurini umumiy nom ostida o'zida mujassam etgan bebaho va betakror adabiy xazinadir.

Millionlab qalblarni bir-biriga bog'laydigan eng qudratli ma'naviy ko'pri

bo'lmish adabiyot tufayli bugun xalqlarimiz o'rtasidagi qardoshlik rishtalari tobora mustahkamlanmoqda.

Yaqinda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etilgan qirg'izistonlik taniqli adib va jamoat arbobi Sulton Rayevning "Tanlangan asarlar"i ham (Sulton Rayev. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Adabiyot" nashriyoti, 2024-yil) mazkur adabiy va abadiy do'stlik, qardoshlik aloqalarining rivoj topib borayotganiga yana bir yorqin dalil bo'ldi.

Davomi 6-beta

XALQARO SAYLOV KUZATUVI

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH VA
DEMOKRATIK RIVOJLANISH YO'LIDAGI
ISLOHOTLARNING XOLIS MEZONI

Kun mavzusi

Yurtimiz bugungi kunda inson huquqlari bo'yicha saksondan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti sifatida xalqaro majburiyatlar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini izchil amalga oshirib kelmoqda.

Jumladan, demokratik saylovlarni o'tkazish, ushbu jarayon ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish sohasida ham zamonaviy huquqiy asoslar yaratilgan va davr talabidan kelib chiqib takomillashtirilmoqda. Shu kunlarda mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tadigan

saylovlarga tayyorgarlik jarayonida bu jihatlarda yaqqol namoyon bo'layotir.

Xalqaro saylov kuzatuvini ushbu siyosiy jarayonning eng muhim bosqichlaridan biridir. Joriy yilda bo'lib o'tadigan saylovga tayyorgarlik doirasida xalqaro kuzatuvchilarni taklif etish jarayoni ham boshlab yuborildi.

Davomi 4-beta

SAYLOV
2024
27-OKTABR

MENING TANLOVIM — ODDO VATANIM





O'zbekiston – Ozarbayjon:

DO'STLIK VA HAMKORLIK ALOQALARINING MUSTAHKAM POYDEVORIGA ASOSLANGAN FAOL MULOQOT

Boshlanishi 1-betda

O'z navbatida, davlatimiz rahbari 2023-yilda Ozarbayjonga uch marta, jumladan, mart oyida Qo'shimchilik harakatining Boku shahrida bo'lib o'tgan muloqot guruhi sammitida ishtirok etish, avgust oyida davlat tashrifi bilan va noyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi (SPECA)ning Boku shahridagi birinchi sammitida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi. O'zbekiston Prezidenti 2024-yil 5-6-iyul kunlari Shusha shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ham ishtirok etdi.

O'zaro tashriflar almashinuvi ikki tomonlama munosabatlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishda muhim omil bo'layotir. Natijada o'nlab hujjatlar, jumladan, Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi deklaratsiya va Oliy davlatlararo kengashni tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi.

Ushbu hujjatlar imzolanishi rasmiy Toshkent va rasmiy Boku manfaatlarida hamda maqsadlariga mos kelishini, teng huquqli va ko'p qirrali sheriklikni faollashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdan manfaatdorligini namoyon etdi.

Oliy darajadagi muloqotning jadallashgani yuqori darajadagi tashriflar almashinuvi faollashtirish, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar va ko'p tomonlama formatlar doirasidagi o'zaro aloqalarni kengaytirishga xizmat qildi.

O'zbekiston va Ozarbayjon BMT, Qo'shimchilik harakati, Turkiy davlatlar tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli platformalarda bir-birini faol qo'llab-quvvatlamoqda. So'nggi yillarda Ozarbayjon O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida qabul qilingan to'rtta rezolyutsiya hammualliflaridan biriga aylanganini mamlakatimiz yuksak qadrlaydi.

Har ikki davlat qonun chiqaruvchi organlarida tashkil etilgan parlament-

lararo do'stlik guruhlarini faoliyati qonun chiqaruvchilar o'rtasidagi amaliy va samarali aloqalarni kengaytirishga xizmat qilayotganini ham alohida ta'kidlash kerak.

Idoralararo darajada hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. Ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilmoqda, transport ma'muriyatlarining yaqin muloqoti yo'lga qo'yilgan, savdo-iqtisodiy aloqalar, sanoat kooperatsiyasi mustahkamlanmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'z mintaqalarida ulkan salohiyatga va asosiy geostrategik joylashuvga ega bo'lib, bugungi kunda bir-birlari uchun iqtisodiy jihatdan istiqbolli sheriklarga aylandi, bu esa munosabatlarni kengaytirishga bo'lgan o'zaro qiziqishning ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Rivojlanish ko'lamini tushunish uchun ikki tomonlama tovar ayirboshlash sur'atiga qarash kifoye. 2017-yildan buyon o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 5,5 barobardan ziyodga oshdi. Joriy yilning yanvar-iyun holatida esa ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga o'sishga erishildi. Albatta, bu ko'rsatkichlar mavjud imkoniyatlarga to'liq mos kelmaydi, biroq ularning o'sish dinamikasi rasmiy Toshkent va rasmiy Boku yaqin yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard AQSH dollariga yetkazish bo'yicha o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishni tasdiqlaydi.

Iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida 2020-yilda O'zbekiston — Ozarbayjon Ishbilarmonlar kengashi tuzildi. Hozirgi kunga qadar uning to'rtta yig'ilishi o'tkazildi. Mazkur platforma o'zaro manfaatlar kesishgan yangi nuqtalarni aniqlash va investitsiyaviy, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan istiqboldagi birgalikdagi harakatlarni aniqlab olish imkonini beradi.

2023-yilda ikki davlatdagi eng istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston — Ozarbayjon qo'shma investitsiya kompaniyasi tashkil etildi.

Ozarbayjon kapitali ishtirokida savdo, mashinasozlik va metallga ishlov berish, moliya va sug'urta, ko'chmas mulk bilan



bog'liq operatsiyalar, energetika, xizmat ko'rsatish, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan 240 ta korxonada O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Har ikki davlat transport sohasida ham hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunga tarixiy xalqaro savdo yo'llari chorrahasida joylashgan mamlakatlarimizning o'z strategik o'rinlarini uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlariga aylantirish istagi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ishonchli logistika infratuzilmasini yaratish va tranzit yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish o'zaro aloqalarning strategik tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mamlakatlarimiz bu vazifaga o'z iqtisodiyoti yuksalishining muhim omili sifatida qaraydi.

O'zbekiston bugun milliy tovarlarning jahon bozoriga chiqishini ta'minlovchi "Boku — Tbilisi — Kars" temir yo'li imkoniyatlaridan faol foydalanmoqda. Ozarbayjon tomonidan "O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy" temir yo'li qurilishini qo'llab-quvvatlaydi, uning amalga oshirilishi aloqalarni sezilarli darajada kengaytirish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda Bokudan Toshkent, Samarqand, Urganch va Farg'onaga yo'lga qo'yilgan to'g'ridan to'g'ri havo qatnovlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2019-yildan boshlab O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida hududlararo hamkorlik faollashdi. Ikki mamlakat delegatsiyalarining o'zaro tashriflari muntazamlik kasb etayotir.

Masalan, O'zbekiston — Ozarbayjon mintaqalarining birinchi forumi 2023-yil fevral oyida Toshkentda, ikkinchisi joriy yilning may oyida Guba shahrida bo'lib o'tdi. Mazkur forumlar yakunlariga ko'ra, Samarqand va Ganja, Xiva va Shusha, Buxoro va Lankoran, Qo'qon va Sheki, Namangan va Mingechevir, Guliston va Fuzuliy, Termiz va Bilyasuvlar shaharlari o'rtasida hamkorlik bitimlari imzolandi. Hududlararo aloqalarni yanada rivojlantirish va shaharlar o'rtasidagi aloqalar geografiasini kengaytirishdan tomonlar manfaatdor ekanliklarini bildirmoqda.

Hozirgi zamonaviy bosqichda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy-gumanitar almashinuvlarni rivojlantirishda din, til, madaniyat va an'analarning tarixiy mustahkamligi muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, atqoli o'zbek va ozar mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalari —

Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Nizomiy Ganjaviy, Nosiriddin Tusiy, Muhammad Fuzuliy va boshqa bir qator allomalarning ijodi nafaqat turkiy tilli xalqlar, balki butun insoniyat mulki hisoblanadi. Ular qoldirgan buyuk merosni xalqlarimiz yuksak qadrlaydi.

Boku shahrida Alisher Navoiy, Toshkent shahrida esa Nizomiy Ganjaviy va Haydar Aliyev haykallari o'rnatilgan. O'zbekiston davlat pedagogika universiteti Nizomiy Ganjaviy nomi bilan ataladi, Ozarbayjonda esa Alisher Navoiy nomidagi qishloq bor.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2023-yilda Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi 960 o'rimga mo'ljallangan zamonaviy maktab barpo etilgani mustahkam do'stlik va hamjihatlikning yana bir belgisi bo'ldi.

Ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning ta'lim sohasidagi tashabbuslari tufayli ilmiy hamkorlik imkoniyatlari chuqurlashib, ikki davlat o'rtasida tobora ko'proq qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda va delegatsiyalar muntazam ravishda almashilyapti.

Jumladan, Ozarbayjon madaniyat vaziri boshchiligidagi delegatsiya 2024-yilda Zomin shahrida o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati forumida, O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov esa VI Boku Butunjahon madaniyatlararo muloqot forumi va "Shusha — Islom dunyosining madaniy poystaxti" tadbirlarining ochilish marosimida ishtirok etdi.

Ikki davlat hududlarida madaniyat va adabiyot kunlari, kino va ijodiy haftaliklar, gastrol safarlari, badiiy ko'rgazmalar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, 2023-yil aprel-may oylarida mamlakatimizda o'zbek-ozar munosabatlari rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyevning 100 yilligiga bag'ishlangan qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi.

Joriy yilning mart oyida Boku shahridagi Haydar Aliyev nomidagi markazda "Choklardagi meros: O'zbekiston kashtachilik va tikuvchilik an'analari bo'yab sayohat" ko'rgazmasi ochildi. Ozarbayjon davlat akademik musiqali teatrida "Lazgi — muhabbat va qalb raqsi" baletining premyerasi katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, O'zbekistonda ham, Ozarbayjonda ham har ikki xalq yetakchi san'at vakillarining ijodi juda mashhur va ular e'zozlanadi. Ozarbayjon ijodkorlarining madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashdagi xizmatlari e'tirof etilib, O'zbekistonning yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'lmoqda. Masalan, O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan Rashid Beybutov nomidagi Ozarbayjon davlat akademik musiqali teatri vokalisti Gulyanoq Mamedova 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi xalq artisti, 2024-yilda esa atoqli Ozarbayjon madaniyat arbobi Po'lad Bulbul o'g'li O'zbekiston Respublikasi xalq artisti unvonini bilan taqdirlandi. Shuningdek, Ozarbayjonning bir qator ijtimoiy-siyosiy arboblari "Do'stlik" ordeni topshirilgan.

O'z navbatida, taniqli o'zbek estrada xonandalari Nasiba Abdullayeva va Farrux Zokirov Ozarbayjon xalq artistlari, O'zbek milliy maqom san'ati markazi Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli badiiy rahbari Abduhosim Isoilov, O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori Kamoliddin O'rinboyev va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Ali Nasirli "Dostluk" ordeni bilan taqdirlangan.

Do'stlik rishtalarini mustahkamlashga bugun O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ozar millati vakillari ham o'z hissasini qo'shmoqda. Ularning madaniyati va an'analarni asrab-avaylash maqsadida mamlakatimizda Ozarbayjon madaniyat markazlari uyushmasi tashkil etilgan.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi serqirra va samarali aloqalar bugungi kunda o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish yo'lini ishonch bilan davom ettirish imkonini beruvchi mustahkam poydevorga ega. Ozarbayjon yetakchisining O'zbekistonga bo'lajak tashrif va oliy darajadagi muzokaralar ushbu jarayonga qo'shimcha sur'at bag'ishlashi barobarida, ikki tomonlama munosabatlarni yangi va yuqori itifodchilik darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA

Biz va dunyo

Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy:

"O'ZBEKISTON PREZIDENTINING SA'Y-HARAKATLARI MAMLAKATNING IJTIMOY-IQTISODIY MANZARASINI TUBDAN O'ZGARTIRIB, UNI TARAQQIYOT SARI YO'NALTIRDI"

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi arafasida BAA energetika va infratuzilma vaziri Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy bilan suhbatlashdik. Vazir janoblari O'zbekiston bilan hamkorlik istiqbollari haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi va BAA — O'zbekiston munosabatlarining bugungi holatiga baho berdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 32 yilligini nishonlash arafasida suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lganimizdan mamnumiz, — deydi Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy. — Shuni alohida ta'kidlamochimanki, o'zaro hurmat va umumiy kelajakka asoslangan ikki tomonlama hamkorligimiz ildizlari ushbu muhim bosqichda tarixan chuqur ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston boy madaniy meros va katta salohiyatga ega mamlakat. Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari rahnamoligidagi O'zbekiston ham mintaqaviy, ham xalqaro maydonda asosiy ishtirokchiga aylandi. Ul zotning tinimsiz sa'y-harakatlari respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini tubdan o'zgartirib, mamlakatni taraqqiyot sari yo'naltirdi.

Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon A'lo Hazratlari, BAA Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum Hazrati Oliyarlari va BAA Vitse-prezidenti, Bosh vazir o'rinbosari Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon Hazrati Oliyarlari



ko'rsatmalariga muvofiq, O'zbekiston bilan munosabatlarni sezilarli darajada kengaytdi. Asosiy e'tibor umumiy taraqqiyot va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bizning aloqalarimiz qayta tiklanadigan energiya, infratuzilma, sun'iy intellekt, "aqli" hukumat va tajriba almashish kabi ko'plab sohalarda mustahkamlandi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarini yanada jadallashtirish uchun ikkala davlat ham bir qator strategik tashabbuslarni ilgari surmoqda. Joriy yilning aprel oyida O'zbekistonga BAA hukumati va kompaniyalari vakillaridan iborat

yuqori darajadagi delegatsiya bilan tashrifim chog'ida Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari bilan uchrashganimdan juda mamnuman. Muloqot chog'ida "yashil" energiya, mineral resurslar, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiyalar kabi istiqbolli yo'nalishlarda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash masalalarini muhokama qildik.

Prezident Janobi Oliyarlarning xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlash va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha strategik qarashga egaligi yangi O'zbekistonda yanada taraqqiy etirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shuningdek, biz yaqin istiqbolda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator istiqbolli loyihalarni belgilab oldik.

Bundan tashqari, strategik hamkorligimizni 2019-yilda o'n yil muddatga tuzilgan O'zbekiston va BAA Hukumatlari o'rtasidagi Bilim almashinuv dasturi ham tasdiqlaydi. Ushbu dastur umumiy qarashlarimiz va maqsadlarimizni to'liq aks ettiradi va samarali aloqalar uchun global model bo'lib xizmat qiladi. Hujjat bizning o'zaro taraqqiyot va innovatsiyalarga bo'lgan sadoqatimizni ta'kidlaydi, bilim va ilg'or tajriba almashishni rag'batlantiradi hamda BAA hukumati modelidan ilhomlangan salohiyatni oshirish va innovatsion tashabbuslarga e'tibor beradi.

Mazkur dastur doirasida bugungi kunga qadar 175 dan ziyod tashabbuslar amalga oshirildi, 570 ta seminar o'tkazildi va ikki milliyon ortiq kishi malakasini oshirdi.

BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP28) va undan keyingi

global kelishuvlarda, jumladan, tarixiy "BAA konsensusi"da ta'kidlanganidek, barqaror kelajakka sodiqimizga muvofiq, BAA va O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga qarshi birgalikda kurashmoqda. "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida umumiy quvvati 2,047 gigavatt bo'lgan quyosh va shamol

elektr stansiyalari loyihalari ishlab chiqildi. Bu Markaziy Osiyodagi quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha eng yirik dastur hisoblanadi.

Bundan tashqari, infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va kommunikatsiyalarni tezlashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqsadga erishish uchun dasturlar amalga oshirilmog'da. Joriy yil

"BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP28) va undan keyingi global kelishuvlarda, jumladan, tarixiy "BAA konsensusi"da ta'kidlanganidek, barqaror kelajakka sodiqimizga muvofiq, BAA va O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga qarshi birgalikda kurashmoqda.



"Dunyo" AA

Abu-Dabi shahri

BUYUK O'ZBEK YO'LI

O'zbekistonning majburiy mehnatdan xalos bo'lishi xalqaro maydonda mamlakatning obro'sini oshirdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatga investitsiyalar kirishi va savdo munosabatlarning yaxshilanishiga olib keldi. Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonning mehnat huquqlariga rioya qilish borasidagi yutuqlarini yuqori baholadi. O'zbekistonning "Generalised System of Preferences" (GSP+) dasturi doirasida Yevropaga eksport qilish imkoniyatlari kengaydi.



KECHAGI KUN XATOLARI – BUGUNGA SABOQ



Qo'ng'irovboy SHARIPOV,
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Boshlanishi 1-betda

Yangi ruh, yangi nafas

O'zbekistonda paxta yig'im-terimi va majburiy mehnat bilan bog'liq muammolar nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro hamjamiyatlar tomonidan uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelingan, xususan, 1991-2015-yillar oraliqida masalaga panja orasidan qaralib, faqat so'nggi yetti yildagina bu borada tub islohotlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yildan davlat rahbari sifatida "xalqni rozi qilish" tamoyili asosida konstruktiv ulkan islohotlarga qo'l urishi barobarida, paxta yetishtirish va yig'im-terim jarayonlarini isloh qilishga katta e'tibor qaratdi. Xalqaro standartlarga muvofiq paxta yig'im-terimida majburiy mehnatga chek qo'yish maqsadida tezkor qonunlar qabul qilindi va amaliy ijroga yo'naltirildi. Jumladan, paxta yig'im-terimiga majburiy ravishda jalb etish amaliyoti bekor qilindi hamda mehnat qonunchiligiga doir xalqaro standartlar hayotimizga izchil tatbiq etildi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda 2016-yilni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixiy burilish yili bo'ldi, deb aytayotgan. Xususan, davlatimiz rahbari Samarqandda fermer-dehqonlar bilan uchrashuv chog'ida fermerlarning paxta yetishtirib, daromad ko'rmayotgani va talabalar majburiy mehnatga jalb etilganini "azob", deb atagan edi.

Mazkur uchrashuvda paxta yetishtirish va terish muammolariga alohida e'tibor qaratilib, xomashyoning xarid narxi 40 foizga oshirilgani, tolasi endi xomashyo sifatida eksport qilinmasligi, klasterlar tomonidan to'liq o'zimizda ishlab chiqarilib, tayyor mahsulot sifatida xalqaro bozorlarga chiqish, qo'shimcha qiymat yaratish ko'zlangan edi.

Paxta yig'im-terimi mavsumini amaldagi qonunchilikka muvofiq tarzda, fuqarolar manfaatini ustun qo'ygan holda tashkil etish borasida zarur ko'rsatmalar oddiy siyosiy qadamlar emas, inqilobiy o'zgarishlarning nafasi bo'ldi.

Huquqiy islohotlar samarasi

2015 va 2016-yillarda Jahon Banking O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasiga kiritgan investitsiya hajmi 518,75 million dollarga teng bo'lgan. O'zbekiston hukumati Jahon Bankiga loyihalar bilan bog'liq hududlar va joylarda majburiy hamda bolalar mehnatidan foydalanmaslikka va'da bergan.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan 2015-yilda ushbu kelishuv talabari buzilgan haqida e'tirozlar kelib tushgan. Davlatimiz rahbarining ochiq-pragmatik tub islohotlari sababli 2016-yilda bu holatlarga mutlaq chek qo'yilib, xalqaro integratsiyalashuv jadal sur'atlar bilan o'sa boshladi.

Natijada 2021-yilda mamlakatimizga to'g'ri riddan to'g'ri investitsiyalar kirib kelishi 2,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 2,6 milliard dollargacha o'sdi. Iqtisodiy raqamlardagi katta farqdan ko'rinib turibdiki, yangi O'zbekiston davrida olib borilayotgan ochiq-pragmatik islohotlar mamlakatni agrar sanoatlashgan davlatdan jadal o'sib borayotgan industrial sanoatlashgan mamlakatga aylantiradi.

Bunga shaffof demokratik islohotlar poydevor bo'ldi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha choralar-tadbirlar to'g'risida"gi qarori majburiy mehnatga barham berishda mutlaq amaliy ijroni ta'minladi. Mazkur qaror paxta terimida majburiy mehnatning oldini olishga qaratilib, davlat organlarining bu boradagi mas'uliyatini kuchaytirdi. Paxta yig'im-terimi mavsumida ixtiyoriy terimchilar uchun shart-sharoit yaratishni nazorat qilish, bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanmaslik bo'yicha milliy monitoring yo'lga qo'yildi.

Monitoring natijalariga ko'ra, paxta yig'im-terimiga majburiy jalb qilganlik uchun mahalliy rahbarlar va davlat xizmatchilariga nisbatan jiddiy choralar ko'rilma boshlandi. Bu, o'z navbatida, majburiy mehnat amaliyoti kamayishiga olib keldi. Ikkinchidan, majburiy mehnatga qarshi kurashish uchun mamlakat bo'ylab keng qamrovli axborot kompaniyalari tashkil etildi. Mutasaddi tashkilotlar va jamoat birlashmalari orqali aholiga o'z huquqlari hamda majburiy mehnatning noqonuniyligi to'g'risida ma'lumotlar tarqatildi. Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va Jahon Banki bilan hamkorlikda majburiy mehnatni bartaraf etishga qaratilgan qator dasturlar amalga joriy etildi.

qilindi. Bunday harakatlar mamlakatning paxta yetishtirish sohasidagi xalqaro imijini yaxshilashga yordam berdi.

Ulkun islohotlar natijasida 2021-yilda kelib, xalqaro kuzatuvchilar O'zbekistonda paxta terimida o'quvchilar va talabalarni majburiy mehnatga jalb qilishga chek qo'yilganini e'tirof eta boshladi. Xalqaro tashkilotlar O'zbekistonning bu boradagi yutuqlarini tan olgan holda, mamlakatning paxta sanoatidagi sharoitlarni yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlab, turli moliyaviy dasturlarda hamkorlikni yo'lga qo'ydi, mamlakatimizda investitsion jolibadorlik osha bordi.

Paxta sanoatidagi islohotlar iqtisodiy rivojlanishga yordam berdi. Ishlab chiqarish jarayonini samaraliroq tashkil etish orqali

Times Higher Education, QS — Quacquarelli Symonds World University Rankings kabi xalqaro tashkilotlar reytingida 1000 talikdan joy ola boshladi. Natijada O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni keskin o'sdi, xususi sheriklik shakli ta'lim sohasiga ham kirib keldi. Ayni paytda davlat va nodavlat OTMLari soni keskin ko'paydi. 1991-yilda yurtimizda oliy ta'lim muassasalari soni 52 ta, 2000-yilda 61 ta, 2010-yilda 65 ta va 2016-yilda 77 ta edi. Ayni paytda 210 tani tashkil etmoqda. So'nggi 7 yilda OTMLar soni 2 barobarga ortgani xalqaro integratsiyalashuv o'sganini ko'rsatadi.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida majburiy mehnat ta'lim sifatiga qay darajada salbiy ta'sir qilgani aniq ko'rsatib berilgan. Mazkur qarorda 2017-yilgacha bir qator oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik salohiyat qoniqarsizligi, ta'lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnik bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aytilgan. Shuningdek, ushbu hujjatda oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatilmagani, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalar joriy etilmagani, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy xodimlar xorijning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazilmagani va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmagani qayd etilgan.

Bundan tashqari, har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalari yaqindan yo'lga qo'yilmagani, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-uslubiy materiallar keng joriy etilmagani, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlari jalb etilmaganiga tanqid baho berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti va oliy ta'limi o'z qobig'ida qolib ketishi natijasida yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash xalqaro talablar doirasida yo'lga qo'yilmagan edi.

Shu davrda pedagog kadrlarning kasb malakasi, mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, bitiruvchilarni PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

O'zbekistonning paxta sanoatini modernizatsiya qilish va majburiy mehnatdan xalos bo'lishdagi tarixi ham mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajak avlod ta'limi uchun tarixiy burilish yo'li bo'ldi.

tahsil olayotgan yoshlar xohlagan professor-o'qituvchi darlarida onlayn ravishda ishtirok etish imkoniyati bor.

Raqamlashtirishdagi islohotlar samarasida abituriyentlar hujjatlarini qabul qilish masofadan turib amalga oshirilmog'ida. Vaqt, ota-ona xarajati va boshqa omillar tejalmog'ida. Bundan tashqari, o'qishga kirish uchun turli muassasalardan ma'lumotnomalar yig'ish va boshqa inson omili mavjud jarayonlar uyda o'tirib bajarilib, korrupsiyasiz ta'lim shakllanmog'ida.

Pirovard maqsadlar ko'zlangan yo'l

O'zbekistonda paxta terimida majburiy mehnatdan xalos bo'lish jarayoni va xomashyoni o'zimizda ishlab chiqarish yo'nalishidagi klaster, kooperatsiya islohotlari mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida yangi davrni

Raqamlashtirishdagi islohotlar samarasida abituriyentlar hujjatlarini qabul qilish masofadan turib amalga oshirilmog'ida. Vaqt, ota-ona xarajati va boshqa omillar tejalmog'ida. Bundan tashqari, o'qishga kirish uchun turli muassasalardan ma'lumotnomalar yig'ish va boshqa inson omili mavjud jarayonlar uyda o'tirib bajarilib, korrupsiyasiz ta'lim shakllanmog'ida.

hosildorlik oshdi, eksport salohiyati kengaydi va paxta yetishtirish jarayonida yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirilgan yangi dasturlar ishlab chiqildi. Bu nafaqat paxtachilik sohasini, balki butun qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yordam berdi.

Paxta yig'im-terimida majburiy mehnatga chek qo'yish va terim narxlarining barqarorlashishi, ayniqsa, qishloq joylaridagi ishchi kuchi uchun muhim ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

O'zbekistonning majburiy mehnatdan xalos bo'lishi xalqaro maydonda mamlakatning obro'sini oshirdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatga investitsiyalar kirishi va savdo munosabatlarning yaxshilanishiga olib keldi. Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonning mehnat huquqlariga rioya qilish borasidagi yutuqlarini yuqori baholadi. O'zbekistonning "Generalised System of Preferences" (GSP+) dasturi doirasida Yevropaga eksport qilish imkoniyatlari kengaydi.

OTMLar ko'payishi va ta'lim sifatining oshishi — demokratik islohotlar hosilasi

Dunyo mamlakatlari aholisi qayerda inson huquqlari va qadri ta'minlangan bo'lsa, o'sha mamlakatga tashrif buyuradi, qo'shni davlatlar u yerda o'z farzandlarini o'qitishga intiladi.

Yangi O'zbekiston islohotlari "inson qadri uchun" tamoyili asosida dunyoga bo'y cho'zdi. Buni 2016-yildan keyin oliy ta'limda erishilgan yutuqlarda ko'rish mumkin. Xususan, 2016-yildan so'ng mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari ARWU — The Academic Ranking of World Universities, THE —

Oltin o'rtaliqda rivojlanish pillapoyalari

So'nggi yetti yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti ilm-fanga asoslangan innovatsion rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. O'zbekistonda 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingiga ko'ra, dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari tarkibiga kirish bo'yicha ulkan maqsadga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-



mobyaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yangi, shu jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil qilindi. Zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniya asosan, oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash rejalashtirilgan.

boshlab berdi. Har bir qadam, har bir islohot yurtimizning global maydondagi mavqeiini mustahkamladi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minladi va iqtisodiy o'sishga turtki berdi.

Ta'lim sifatiga jamiyatni rivojlantiruvchi omil va harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralib, ilmiy-fan kambag'allik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishda amaliy vosita sifatida maydonga chiqdi.

Muxtasar qilib aytganda, berilgan tarixiy imkoniyatlardan samarali foydalanilgan holda, oliy ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida kuchaytirish, talaba yoshlarning qalbi va ongiga vatanparvarlik g'oyasini singdirib, xalqimizning yuksak salohiyati hamda insonparvarlik an'analarga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

Ayniqsa, bugun mamlakatlar taraqqiyotida ta'lim sifatini muhandislik texnologiyalariga integratsiyalashgan holda taraqqiy ettirishga ustuvor vazifa sifatida qaralishi O'zbekiston uchun ham namuna bo'lib, so'nggi yillarda ta'lim sohasida o'tkazilgan tub islohotlar samarasidir.

Davlatimiz rahbarining oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar va tadqiqotchilarni jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga rag'batlantirish, oliy muhandislik maktablarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish kabi tashabbuslari yo'qotilgan yillar va imkoniyatlarni qayta tiklashga xizmat qiladi.

Zero, keng ko'lamli yangi O'zbekiston fenomenidagi tub islohotlar 2030-yilgacha ko'zlangan ulkan marralarga yetishish va uzoq istiqboldagi pirovard maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.



